

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

“Asaka” banki 2014 yilning birinchi choragida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ning “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori talablarini ijrosini ta'minlash yuzasidan muayyan ishlarni amalga oshirdi va quyidagi ko'rsatkichlarga erishdi.

2014 yil 1 aprel holatiga bankning jami aktivlari **4,84 trln.so'mni** tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (**3,89 trln.so'm**) **25,74%** ga o'sgan. Daromad keltiruvchi aktivlar **3,23 trln. so'mni** tashkil qilib, umumiy aktivlarni **66,7%** tashkil qildi.

Bank kapitali jami 720,26 mlrd. so'mga etkazilib, o'tgan yilga nisbatan (**620,16 mlrd. so'm**) **16,14%** ga o'sgan.

Bankning **ustav kapitali** o'tgan yilning mos davriga nisbatan **21,1%** o'sib, **437,4 mlrd.so'mni** tashkil qildi.

Bank **daromadining** umumiy miqdori **163,5 mlrd so'mni** tashkil qilib o'tgan yilning mos davriga (**111,9 mlrd.so'm**) nisbatan **146%** oshgan.

Bank foydasi 20,7 mlrd so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga (**14,8 mlrd.so'm**) nisbatan **139%** ga oshgan.

Bankning jami kredit qo'yilmalari **2,2 trln. so'mni** tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **115,8 foizga** o'sgan (**1,9 trln.so'm bo'lgan**).

Kredit qo'yilmalarning **538.5 mlrd. so'mi** (kredit portfelni **22,7%**) qisqa muddatli kreditlar va **1,7 trln. so'mi (77.3%)** uzoq muddatli kreditlar ni tashkil etadi.

2014 yil 1 choragi davomida bank tomonidan jami **146,03 mlrd. so'm** miqdorida investitsiya kreditlari ajratilgan.

2014 yil 1 aprel holatiga investitsion kreditlar bo'yicha qoldiq **1,5 trln. so'mni** tashkil qildi.

2014 yilning 1 aprel holatiga lizing amaliyotlari hajmi **16,1 mlrd so'mni** tashkil qilib, **35 ta** xo'jalik sub'ektiga ko'rsatilgan lizing xizmatlari natijasida **146 tadan** ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan.

2014 yil davomida Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida **10,9 mlrd.so'm** miqdoridagi **17 ta bank kafolatlari** berilgan, 2014 yil 1 aprel holatiga ochilgan akkredetivlar bo'yicha qoldiq **757,1 mlrd. so'mni** tashkil qiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun **190,5 mlrd. so'mdan** ortiq miqdorda kredit mablag'lari ajratildi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **110,1 foizni** tashkil etdi (rejaga nisbatan **108,4 foizga** bajarildi);

Ajratilgan mikrokreditlar hajmi 14,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan **150,5 foizni tashkil qildi**. O'rnatilgan rejaga nisbatan **113,3 foizga** bajarildi;

Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash ga 19,5 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi va

bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **153,8 foizni** tashkil etdi (reja **117,1 foizga** bajarildi);

O'zR Prezidentining PQ-308-sonli va PQ-842-sonli qarorlarga asosan qoramol sotib olishga ajratilgan mikrokreditlar hajmi **1,7 mlrd. so'mni** tashkil etib, o'rnatilgan reja **107,9 foizga** bajarildi. O'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich **112,9 foizni** tashkil etdi;

O'zR Prezidentining PQ-1047-sonli qaroriga asosan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga **59,3 mlrd. so'm** miqdorida kreditlar ajratilgan, Markaziy bank tomonidan belgilangan reja **114,8 foizga** bajarilgan. O'tgan yilning mos davriga nisbatan bu ko'rsatkich **110,4 foizni** tashkil etdi;

O'zR Prezidentining PQ-1050-sonli qaroriga asosan nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga **45,9 mlrd.so'mdan** ortiq kreditlar ajratildi va Markaziy bank tomonidan belgilangan reja **109,9 foizga** bajarildi. O'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich **141,9 foizni** tashkil etdi;

Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi **2,3 mlrd.so'm bo'lib**, Markaziy bank tomonidan belgilangan reja **154,9 foizga** bajarilgan. O'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich **155,4 foizni** tashkil etdi, shuningdek, Ta'lim muassasalari bitiruvchilariga ajratilgan kreditlar hajmi **1,5 mlrd.so'mni** tashkil etdi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 2014 yil 1 aprel holatiga "Asaka" bank tomonidan jami ajratilgan kreditlar va moliyalashtirilgan loyihalar evaziga **7000 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.**

2014 yilning 1 aprel holatiga **bankning jami depozitlari miqdori** (talab qilinguncha, jamg'arma, muddatli, boshqa depozitlar, depozit va jamg'arma depozit sertifikatlari va obligatsiyalari) **3,12 trln. so'mni** tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **633,5 mlrd. so'm yoki 25,5%ga** ko'paygan.

Aholi omonatlari qoldiqlari **425.2 mlrd. so'mni** tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga (**329.8 mlrd.so'm**) nisbatan **95.2 mlrd. so'mga** yoki **129%** ko'paydi. Yil boshiga (**405 mlrd.sum**) nisbatan **25 mlrd.sumga** yoki **105% ortdi.**

Bank bo'yicha jami **94 ta** omonat turi mavjud bo'lib, shundan **63 tasi** milliy valyutadagi va **31 tasi** xorijiy valyutadagi omonatlardir.

2014 yil 1 aprel holatiga bank filiallariga jami **774 mlrd. so'm naqd** pul mablag'lari kirim qilingan. Utgan yil birinchi choragi bilan taqqoslaganda nakd pul tushumi (**499 mlrd.sum**) **275 mlrd. sumga** yoki **155%** ortgan.

Bank tomonidan **jami 1,3 million dona** plastik kartochkalari muomalaga chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **194.9 mingtaga** ko'paygan.

2014 yilning 1 apreliga qadar **9 ming tadan ortiq** terminal o'rnatildi, shundan **8,4 ming tasi** savdo

terminali, **195 tasi** kommunal to'lovlar qabul qilish uchun, **442 tasi** banklarda, minibanklar va maxsus kassalarga o'rnatilgan.

2014 yil 1 aprel xolatiga plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan savdo aylanmalar xajmi **318,1 mlrd.so'mni** tashkil qildi. Savdo aylanmalar xajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,2%ga** yoki **48.9 mlrd. so'mga ko'paygan.**

Bank tizimda **27 ta** bankomat va **46 ta** infokiosk aholiga va bank mijozlariga xizmat ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrdagi PQ-726-sonli "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etishga qaratilgan qo'shimcha choralar to'g'risida"gi Qarorni hamda 2010 yil 13 dekabrdagi Tijorat banklar tomonidan etakchi xalqaro reyting agentliklarini bahosini muntazam ravishda olib turish to'g'risidagi kompleks chora- tadbirlar dasturini ijrosini ta'minlash maqsadida 2014 yilning 22 yanvarda Moody's Investors Services Ltd. Reyting agentligi tahlilchilari tomonidan "Asaka" bank faoliyatining reyting baholarini avvalgi darajada "Barqaror" deb tasdiqlandi.

2013 yilning 12 avgustida "Fitch Ratings Ltd" Xalqaro reyting agentligi "Asaka" bankining to'lovga qobiliyatligini "Barqaror" deb tasdiqladi.

Xozirgi kunda "Asaka" banki boshqa reyting agentliklari bilan (Standard&Poor's) ham xamkorlik ishlarini olib bormoqda.